

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 34 618,1 mlrd. So'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 2,1 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 % ga yetdi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>31 153,2</b>	<b>34 618,1</b>	<b>102,1</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 520,0	33 293,8	102,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2 633,2	1 324,3	101,7
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>28 520,0</b>	<b>33 293,8</b>	<b>102,2</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	12 189,0	14 528,9	103,4
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	7 236,2	8 378,5	100,4
	sanoat	5 336,5	6 221,6	100,5
	qurilish	1 899,7	2 156,9	100,2
	<b>Xizmatlar</b>	9 094,8	10 386,4	101,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 889,1	2 141,3	98,6

		Mlrd. so‘m		O‘ <i>si</i> sh sur‘atlari, o‘ <i>t</i> gan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 491,6	1 671,2	102,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 714,1	6 573,9	102,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 10 466,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga yuqoridir.



**Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o‘*si*sh sur‘atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 43,6 % ni, sanoat tarmog‘i 18,7 % ni, qurilish 6,5 % ni va xizmatlar sohasi 31,2 % ni tashkil qildi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)


		2019- yil	2020- yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91,5	96,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	8,5	3,8
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>42,7</b>	<b>43,6</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>25,4</b>	<b>25,2</b>
	sanoat	18,7	18,7
	qurilish	6,7	6,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>31,9</b>	<b>31,2</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,6	6,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	20,1	19,8





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)




YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,4 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,6 %), sanoatda – 100,5 % (18,7 %), qurilishda – 100,2 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 101,9 % (31,2 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari tashish va saqlash, axborot va aloqa 102,9 % (5,0 %) va boshqa xizmat tarmoqlarida 102,8 % (19,8 %) dan iborat. Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda kamayish kuzatildi - 98,6 % (6,4 %).



## YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



## 2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 108,8 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida– 116,0 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 115,3 % qayd etildi.



**YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilga nisbatan % da)

